

2023-yilda amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida MA'LUMOT

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2023-yilda kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **195,6** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar – **89,2** mln. dollar (ulushi 45,6 %), shu jumladan:
 - 4 dona yuk tashuvchi magistral teplovozi - 22,8 mln. dollar;
 - 31 dona kon samosvallari – 32,5 mln. dollar;
 - 9 dona burg'ulash dastgohi – 9,0 mln. dollar;
 - 5 dona avtogreyderlar – 5,1 mln. dollar;
 - 3 dona gusenitsali buldozer – 3,7 mln. dollar;
 - 3 dona gidravlik ekskavatori – 8,5 mln. dollar;
 - 2 maydalash uskunalar – 1,7 mln. dollar;
 - 3 dona aralashtirish-zaryadlash mashinasi – 1,4 mln. dollar;
 - va boshqa uskunalar (texnologik uskunalarni butlovchi qismlar (*beg'araz asosda olib kirilgan*) va b.) – 4,5 mln. dollar.
2. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar va portlashlarni yuzaga keltiruvchi vositalar) – **82,2** mln. dollar (42,0 %);
3. Butlovchilar va ehtiyyot qismlar (kon va shaxta texnikasiga ehtiyyot qismlar, shu jumladan ichki yonuv dvigatellari va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **13,5** mln. dollar (7,0%);
4. Xizmatlar – **10,7** mln. dollar (5,4%).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lмаган, Mahalliy lashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo'linmalarini quvvatlarida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2023 yilda mahalliy lashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan jadvalga muvofiq, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 173 ta (jadval bo'yicha 173 ta) loyiha bo'yicha 629,5 mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 101,4%ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2022 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,5%ni tashkil etdi.

Xususan, 55x75 o'lchamdagagi yangi turdagisi sharli tegirmon, masofada boshqariladigan avtomatlashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion

oziqlantiruvchi boshqaruv shkafi, yangi turdag'i kon-shaxta burg'ulash texnikalari uchun ehtiyyot qismlari kabi mahsulot turlari o'zlashtirildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2023-yilda sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **5 546,5** mln. so'mni va 2022-yilning mos davriga nisbatan 114,3% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2023-yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ga asosan, import bo'yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlari 2023-yilda **100,8** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko'zda tutilgan, kelib chiqishi import bo'lgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron kooperasiya portalining "Import muqobili bo'yicha so'rov yuborish" bo'limiga joylashtirish orqali ularni o'zlashtirish bo'yicha potentsial ishlab chiqaruvchilarni aniqlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

"Navoiy KMK" AJ tomonidan Vazirlar Mahkamasining tasdiqlangan reja grafigiga asosan, har yili o'tkaziladigan hududiy sanoat va kooperasiya yarmarkalarida o'rnatilgan tartibda ishtirok etmoqda. Xususan, "Navoiy KMK" AJ tomonidan 2023-yil 16-17 mart kunlari Jizzax viloyatida, 13-14 aprel kunlari Buxoro viloyatida, 30-31 may kunlari Samarcand viloyatida, 16-17 iyun kunlari Farg'ona viloyatida, 24-25 avgust kunlari Surxondaryo viloyatida, 7-8 sentabr kunlari Navoiy viloyatida, 14-15 sentabr kunlari Namangan viloyatida, 21-22 sentabr kunlari Xorazm viloyatida, 2-3 noyabr kunlari Sirdaryo viloyatida, 12-15 dekabr kunlari Toshkent shaharida o'tkazilgan yarmarkalarda munosib ishtirok etib mahsulotlar xarid qilish bo'yicha **2,1 trln.** so'mlik hamkorlik shartnomalari tuzildi.